

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 252 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB OLISHDA QO'LLANILADIGAN QURILMANI LOYIHALASH	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTIONAL MECHANISMS, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MECHANISMS TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR

Tashov Mizrob Maxmudovich

“Ipak yo'li” turizm va madaniy meros
xalqaro universitetining mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish hozirgi paytda turizm yo'nalishlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etib, turizm oqimlari hajmiga hamda nafaqat turizm sohasining, balki butun mintaqaning iqtisodiy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Hududlarda turizm faolligining o'sishi turizm infratuzilmasini rivojlantirishga o'zgartirishlar kiritish va uning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash zaruratini tug'dirmoqda. O'z navbatida, bu turizm bozorini umumiy holda hamda uning alohida tarkibiy elementlarini, xususan, infratuzilmani rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini aniqlashga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Kalit so'zlar: turizm, infratuzilma, innovatsiya, raqamlashtirish, iqtisodiyot, platforma, mexanizm, klaster, menejment, marketing, turist, davlat, mehmonxona, transport, investor, texnologiya.

Abstract. The development of tourism infrastructure is currently gaining increasing importance in enhancing the competitiveness of tourism destinations, influencing the volume of tourist flows and the economic performance not only of the tourism sector but also of the entire region. The growth of tourism activity in regions creates the need to introduce changes in the development of tourism infrastructure and to improve its qualitative components. In turn, this requires in-depth scientific research aimed at identifying the main trends in the development of the tourism market as a whole and its individual structural elements, particularly infrastructure.

Keywords: tourism, infrastructure, innovation, digitalization, economy, platform, mechanism, cluster, management, marketing, tourist, state, hotel, transport, investor, technology.

Аннотация. Развитие туристической инфраструктуры в настоящее время приобретает всё большее значение для повышения конкурентоспособности туристических направлений, оказывая влияние на объёмы туристических потоков и экономические показатели не только туристической отрасли, но и всего региона. Рост туристической активности в регионах обуславливает необходимость внесения изменений в развитие туристической инфраструктуры и улучшения её качественных компонентов. В свою очередь, это требует углублённого научного исследования, выявления основных тенденций развития туристического рынка в целом и его отдельных структурных элементов, в частности инфраструктуры.

Ключевые слова: туризм, инфраструктура, инновации, цифровизация, экономика, платформа, механизм, кластер, управление, маркетинг, турист, государство, гостиница, транспорт, инвестор, технология.

KIRISH

Dunyo bo'ylab aholining turizm faolligining hozirgi o'sishi mamlakatlarning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Turizm insoniyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi hamda turizm sohasi turli xil iqtisodiy faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Turizmning rivojlanishiga siyosiy, iqtisodiy, tabiiy va boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi. Turizmni infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash katta ahamiyatga ega bo'lib, bu turizm oqimlari hajmiga va turizmning iqtisodiy ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qiladi.



Turizm infratuzilmasi transport tizimi, joylashtirish vositalari, ovqatlanish shoxobchalari, axborot-kommunikatsiya xizmatlari hamda ko'ngilochar va madaniy obyektlar majmuasini o'z ichiga oladi. Mazkur infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi turistlar uchun qulay muhit yaratish, ularning xavfsizligi va xizmatlardan qoniqish darajasini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, turizm infratuzilmasini rivojlantirish nafaqat turizm sohasining, balki hududlarning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari turizm xizmatlarini boshqarish, marketing faoliyatini takomillashtirish va turistlar oqimini samarali tartibga solish imkonini bermokda. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish hamda raqobatbardosh turizm mahsulotlarini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Turizm infratuzilmasi deganda turistlarning turizm resurslaridan erkin va samarali foydalanishini ta'minlovchi binolar tizimi, muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan yo'llar, turizmning turli xil korxonalari va ularning faoliyati, shuningdek ushbu faoliyatni ta'minlovchi boshqa tizimlar tushuniladi. Bular jumlasiga avtomobil yo'llari, temir yo'l, havo, dengiz va daryo transporti harakatini tartibga soluvchi tizimlar, issiqlik, elektr energiyasi hamda telefon aloqasi tarmoqlarini kiritish mumkin.

Tadqiqotchi olimlar o'z yondashuvlaridan kelib chiqqan holda ushbu iqtisodiy kategoriyaga turlicha sharhlar berganlar. Ya'ni, "turizm infratuzilmasi" tushunchasi yangi bo'lmasa-da, ilmiy adabiyotlarda uning yagona va umumiy qabul qilingan talqini mavjud emas. Ayni paytda mazkur tushuncha ko'plab ta'riflar bilan izohlanadi.

Jumladan, M.A. Jukovanning fikriga ko'ra, turizm infratuzilmasi — bu turizm rivojlanishi jarayonida sayyohlar uchun dam olish va ko'ngilochar faoliyatni ta'minlovchi inshootlar majmuasidir [1]. V.F. Buylenko izohiga ko'ra esa, turizm infratuzilmasining o'ziga xos xususiyati shundaki, u nafaqat sayyohlarga, balki mahalliy aholiga ham xizmat qiladi. Shu bois uning rivojlanishi hududda turizm taraqqiyotiga hissa qo'shib, aholining yashash sharoitlarini yaxshilaydi hamda yangi ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi [2].

I.V. Zorin tomonidan keltirilgan ta'rifga ko'ra, turizm infratuzilmasi — bu tizimning samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan va uni ta'minlaydigan o'zaro bog'liq xizmat tuzilmalari hamda obyektlar majmuasidir [3].

V.I. Kurilova esa turizm infratuzilmasini ushbu sohaga tegishli bo'lgan tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar yig'indisi sifatida ta'riflab, u tovarlar ishlab chiqarish va aylanishi, shuningdek aholi hayot faoliyatining normal ishlashi uchun zarur sharoitlarni yaratishga qaratilganligini ta'kidlaydi [4].

V.M. Ivanovanning fikriga ko'ra, turizm infratuzilmasi nafaqat turizmga xos ijtimoiy xizmatlarni, balki turizm resurslariga qulay kirishni ta'minlovchi telekommunikatsiyalar, yo'llar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini o'z ichiga olgan kompleks tizim sifatida qaralishi lozim [5].

Mahalliy olimlar M.R. Boltaboyev, I.S. Tuxliyev, B.Sh. Safarov va S.A. Abduxamidovlarning fikricha, turizm infratuzilmasi — bu turizm faoliyatini amalga oshirish jarayonida turistlarning turizm resurslaridan erkin foydalanishini ta'minlovchi bino va inshootlar tizimi, muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari, jumladan yo'llar, axborot texnologiyalari, turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi turli korxonalar hamda ularning samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi mexanizmlar majmuasidir [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda turizm infratuzilmasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari kompleks va tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida umumilmiy va maxsus ilmiy usullar uyg'unligi qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm xizmatlari sohasi jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, siyosiy va boshqa munosabatlarni qamrab oluvchi tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli sohadagi subyektlar o'rtasida munosabatlar serqirra, keng qamrovli va murakkab bo'lib, ularni aniq, qat'iy o'rnatilgan va barqaror huquqiy normalar bilan tartibga solmasdan turizmdan ko'zlangan maqsadga erishish qiyin. Turizm xizmatlari sohasining rivojlanishi infratuzilma jihatdan optimal va xizmatlar bozori konyunkturasiga nisbatan egiluvchan bo'lsa, xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Turizm xizmatlari sohasida infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiy mexanizmlarini tashkil etishni to'g'ri yo'lga qo'yish milliy iqtisodiyot miqyosida bir qator ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Masalan, infratuzilmani rivojlantirish asosida aholining ish bilan bandligini ta'minlash, soha vakillarining ishbilarmonlik faolligini

oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning tezkor tashkil etilishi va boshqalarning yaxshilanishiga sabab bo'ladiki, pirovardida bularning barchasi mamlakat aholisining turmush darajasi va sifatining oshishiga olib keladi.

- O'zbekistonga tashrif buyuruvchi xorijiy va ichki sayyohlar fikriga ko'ra, mamlakatda geolokatsiya tizimlarini yanada takomillashtirish sayyohlarning mustaqil harakatlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamli xaritalar, yo'nalish ko'rsatkichlari va axborot platformalarini rivojlantirish orqali sayyohlar istagan manzilga oson yetib borishi hamda zarur xizmatlarni tez topishi mumkin [7]. Shuningdek, internet infratuzilmasini yaxshilash mehmonxonalar, restoranlar, kafe va jamoat transportlarida raqamli xizmatlardan samarali foydalanish imkonini oshiradi;

- Mamlakatda turizm infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismlari bo'lgan mehmonxona va transport xizmatlari xizmat sifati va qulaylik darajasiga mos ravishda takomillashib bormoqda. Hududlararo transport aloqalarini kengaytirish, jumladan, turistik yo'nalishlar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni rivojlantirish sayyohlar oqimini ko'paytirish va hududlarning turistik jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi [8];

- Tashrif buyuruvchi turistlar uchun ro'yxatdan o'tish jarayonlarini soddalashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar turizm muhitini yanada qulaylashtirishga xizmat qilmoqda. Elektron ro'yxatdan o'tish, yagona axborot tizimlari va raqamli hujjat aylanishi joriy etilishi sayyohlar uchun vaqt va qulaylik jihatidan ijobiy natijalar bermoqda. Valyuta ayirboshlash xizmatlarini kengaytirish va bank xizmatlarining qulay rejimini joriy etish ham turizm tajribasini yanada yaxshilash imkonini beradi [9];

- Xalqaro tajribadan kelib chiqib, turizm infratuzilmasining tayanch yo'nalishlaridan biri bo'lgan mehmonxona xizmatlariga soliq imtiyozlarini qo'llash raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasini inobatga olgan holda soliq mexanizmlarini bosqichma-bosqich takomillashtirish mehmonxona xizmatlari narxining maqbullashuviga va investitsiya jozibadorligining oshishiga xizmat qilishi mumkin [10];

- Turizmni targ'ib qilishda raqamli va ijtimoiy infratuzilma imkoniyatlaridan foydalanish O'zbekistonning boy tarixiy, madaniy va diniy merosini keng ommaga yetkazish imkonini beradi. Xususan, ziyorat turizmi yo'nalishida maqsadli axborot kampaniyalarini kuchaytirish orqali Shayx Bahouddin Naqshband kabi buyuk allomalar merosini xalqaro miqyosda targ'ib qilish imkoniyatlari mavjud [11];

- Mehmonxona xizmatlari sifatini baholash va tanlash imkoniyatlarini kengaytirish, ochiq reyting tizimlari va onlayn platformalarni rivojlantirish orqali sayyohlar uchun qulay tanlov muhitini yaratadi. Shu bilan birga, 3–4 yulduzli toifadagi zamonaviy va qulay turar joy obyektlarini ko'paytirish ichki va tashqi turizm talabini qondirishga xizmat qiladi;

- Shahar infratuzilmasini kompleks rivojlantirish, jumladan aeroport va vokzallardan shahar markazlariga aniq yo'nalish belgilarini o'rnatish, transport xavfsizligini oshirish, jamoat joylarida zamonaviy sanitariya obyektlarini barpo etish sayyohlar uchun qulay shahar muhitini shakllantiradi. Elektr va suv ta'minoti tizimlarining barqarorligini ta'minlash, yashil hududlarni saqlash va suvni tejashga qaratilgan sug'orish tizimlarini rivojlantirish barqaror shahar konsepsiyasiga mos keladi;

- Tezkor shaharlashuv va turizm oqimlarining ortishi shaharlarning iqtisodiy faolligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va xizmatlar sektorini kengaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ekologik va ijtimoiy muvozanatni saqlagan holda turizmni rivojlantirish shaharlarning o'ziga xosligini asrab-avaylashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Konsepsiyasida sohani jadal rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan aniq vazifalar hamda chora-tadbirlar dasturi belgilab berilgan. Mazkur hujjat turizm xizmatlarini modernizatsiya qilish, infratuzilmani takomillashtirish va hududlarning turistik jozibadorligini oshirish yo'lida muhim strategik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar pandemiyadan keyingi davrda turizm sohasini qayta tiklash va uni barqaror rivojlanish bosqichiga olib chiqish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

Shu bilan birga, turizm xizmatlariga bo'lgan talabning oshib borishi transport, mehmonxonalar biznesi, umumiy ovqatlanish, savdo-sotiq va boshqa maishiy xizmatlar kabi iqtisodiyotning turdosh tarmoqlarida ham ikkilamchi talabni shakllantirmoqda. Bu holat, o'z navbatida, ushbu sohalarni modernizatsiya qilish, xizmatlar sifati va ko'lamini kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda. Natijada, turizm sohasi nafaqat mustaqil tarmoq sifatida, balki butun milliy iqtisodiyotning kompleks rivojlanishini rag'batlantiruvchi muhim omilga aylanib bormoqda.

Fikrimizcha, turizm infratuzilmasini rivojlantirishda innovatsion va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish transport, qurilish, sanoat, savdo, qishloq xo'jaligi hamda xizmat ko'rsatish kabi boshqa iqtisodiy segmentlarda ham ijobiy sinergetik samara bermoqda. Ayniqsa, sun'iy intellektga asoslangan dasturiy yechimlardan tizim faoliyatini samarali boshqarish, xizmatlar sifatini oshirish, turistik oqimlarni tahlil qilish va prognozlash jarayonlarida foydalanish soha rivojida yangi bosqichni boshlab bermoqda. Jahon sayyohlik va turizm tashkilotining tahlillariga ko'ra, virtual turizmning rivojlanishi potentsial sayyohlar uchun yangi tajriba va imkoniyatlar yaratib, ularning real sayohatlarga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirmoqda.



Umuman olganda, turizm infratuzilmasini rivojlantirish jarayonida aniqlangan masalalar sohani yanada takomillashtirish uchun muhim rivojlanish nuqtalari sifatida namoyon bo'lmoqda. Mavjud vaziyatni zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida hal etish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish hamda ilg'or xalqaro tajribalarni joriy etish orqali belgilangan maqsadlarga erishish imkoniyatlari kengaymoqda (1-jadvalga qarang). Shu ma'noda, aniqlangan muammolar innovatsion g'oyalar va yangi yechimlarni shakllantirish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. P. Druker ta'kidlaganidek, muammoni anglash ijtimoiy ehtiyojlarning ifodasi sifatida har qanday innovatsion jarayonning boshlanishiga turtki beruvchi asosiy omil hisoblanadi.

1-jadval. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish muammolarini innovatsion yondashuv asosida hal qilish yo'nalishlari¹

Muammo	Muammoning standart yechimi	Muammoni innovatsion yondashuv asosida hal qilish
Turizm resurslaridan foydalanish	sayyohlik marshrutlarini, shu jumladan tashrif buyurish uchun standart joylarni shakllantirish	turistlar uchun noma'lum hududlarga turistik marshrutlarni shakllantirish yoki tadbirlarni rekonstruksiya qilish kabi jozibali tadbirlardan foydalanish; folklor jamoalarining konsertlari va boshqalar.
Infratuzilmani rivojlantirish (xizmat ko'rsatish sifatini ta'minlash)	Mehmonxona misolida mehmonxonani eskirgan uskunalar (televizorlar, kompyuterlar, bron qilish tizimlari va boshqalar) bilan jihozlash; ishda xodimlarni boshqaruvning an'anaviy usullaridan foydalanish	mehmonxonani ilmiy-texnik taraqqiyotning zamonaviy darajasiga mos ravishda jihozlash, mijozlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, shuningdek, mijozlar va xodimlar uchun xizmat ko'rsatish jarayonining ergonomikasi va qulayligini hisobga olgan holda; yangi va xilma-xil xizmatlarni ishlab chiqish va taklif qilish
Normativ-huquqiy bazani shakllantirish	me'yoriy hujjatlarni (NHB) shakllantirishda eskirgan ma'lumotlardan foydalanish; mahalliy xususiyatlarni hisobga olmagan holda federal dasturlar asosida rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish	ma'lum bir mintaqada turizm rivojlanishining batafsil tahlilini o'tkazish; NHBlarni ishlab chiqishda jamoat tashkilotlari va manfaatdor tijorat tuzilmalarini jalb qilish; NHBga aniq biznes loyihalarini kiritish
Turizm sohasida kadrlar tayyorlash	eskirgan o'quv dasturlari yordamida darslarda nazariy tayyorgarlikdan foydalanish	nazariy va amaliy mashg'ulotlarni vizualizatsiya vositalaridan foydalanish va amaliyot o'tash imkoniyati bilan uyg' unlashtirish; masofaviy ta'limdan foydalanish
Turizm ma'lumotlarini shakllantirish	bosma reklama materiallaridan ustun foydalanish (flyerlar, broshyuralar, kataloglar)	reklama video materiallaridan foydalanish (masalan, O'zbekiston haqida ma'lumot beruvchi film yaratish uchun xorijiy ommaviy axborot vositalarini jalb qilish (masalan, "Yomon eslatmalar" teleko'rsatuvi)); turizm resurslari, marshrutlari, infratuzilmasi va boshqalarning to'liq, ishonchli, axborot beruvchi, hamma uchun ochiq ma'lumotlar bazasini yaratish. O'zbekiston Respublikasida.
Xavfsizlikni ta'minlash	turistlarni yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar haqida xabardor qilish; huquq targ' ibot vakillari bilan birgalikda xodimlar o'rtasida profilaktika ishlarini olib borish	sayyohlar oqimining ko'payishi mavsumida sayyohlar eng ko'p to'planadigan joylarda patrullik qiluvchi hushyorlar guruhlarini yaratish.

1 Muallif ishlanmasi

Ushbu uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" hamda 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror va farmonlarida belgilangan ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqot jarayonida mazkur ilmiy-uslubiy tavsiyalar Samarqand va Navoiy viloyatlarida faoliyat yurituvchi "Samarkand Travel" turistik oilaviy korxonasi hamda "Kasaba Samarkand" kabi turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatiga joriy qilindi. Uslubiy tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi natijasida turizm sanoati ishtirokchilari faoliyatida quyidagi ijobiy natijalarga erishildi:

- faoliyat jarayonida energiya sarfi, suv va oqova suvlar iste'moli, maishiy chiqindilarni boshqarish tizimi va boshqa ekologik yo'nalishlar muvozanatlashtirilib, atrof-muhit va ekologiyaga salbiy ta'sir darajasi kamaytirildi. natijada ekoturizmning yangi yo'nalishlarini tashkil etish imkoniyati yaratildi;
- mahalliy jamoatchilik bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, ularning ijtimoiy-madaniy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatishda teng sharoitlar yaratish, ishchi-xodimlarni munosib mehnat sharoitlari bilan ta'minlash, ularning malakasini oshirish va boshqa ijtimoiy masalalarni hal etish orqali faoliyatning ijtimoiy munosabatlari yangi bosqichga olib chiqildi;
- davlat-xususiy sheriklik, xorijiy investitsiyalar va qo'shimcha resurslarni jalb etish asosida turistik infratuzilmani modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, aylanma mablag'lar barqarorligini ta'minlash, faoliyatga zamonaviy axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali turizmning yangi turlarini tashkil etish, hududlarning turistik jozibadorligini oshirish hamda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyati yaratildi.

Taklif etilgan tavsiyalar amaliy xarakterga ega bo'lib, turizm sanoati ishtirokchilarining barqaror rivojlanishi yo'lidagi aniq chora-tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Tavsiyalar barqaror rivojlanishga o'tishning ekologik, ijtimoiy hamda tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini qamrab oladi.

Ish doirasida turizm sanoati ishtirokchilarining uch xil toifasi uchun alohida tavsiyalar ishlab chiqildi. Bular: dam olish maskanlari (kurort zonolari), mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalari, shuningdek, turoperatorlar va sayyohlik agentliklaridir. Dam olish maskanlari (kurort zonolari) va mehmonxonalar uchun ishlab chiqilgan tavsiyalar obyektlarni qurish hamda ulardan foydalanish bosqichlarini ham qamrab oladi.

Turizm sanoati ishtirokchilariga mazkur tavsiyalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonida biznes ko'lamini, faoliyatning o'ziga xos jihatlari, bozor holati, mijozlar ehtiyojlari va boshqa omillarni hisobga olgan holda ularni joriy etish ketma-ketligi hamda ustuvor yo'nalishlarini mustaqil ravishda belgilash tavsiya etiladi.

Turizm xizmatlari sohasini milliy iqtisodiyotning muhim strategik tarmog'i sifatida rivojlantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish, shuningdek, turistik infratuzilmani, jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda samarali reklama-marketing ishlarini olib borish orqali takomillashtirish, Konsepsiyada belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda ko'p jihatdan tarmoq iqtisodiyotida davlatning faol ishtirokini talab etadi. Turizmni jadal sur'atlarda rivojlantirish davlatning bevosita va faol ishtirokisiz, puxta o'ylangan tezkor chora-tadbirlarsiz hamda yuqori samarador siyosatisiz amalga oshmaydi.

Bizningcha, kelgusida O'zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi ishlar samaradorligi davlat hokimiyati organlarining turizm sohasini boshqarishda iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, ekologik, moliyaviy, imijiy hamda marketing nuqtayi nazaridan olib boradigan siyosatiga bevosita bog'liq bo'ladi.

O'zbekistonda turizm xizmatlari sohasini iqtisodiyotning "drayveri" sifatida ilgari surish, belgilangan ustuvor vazifalarni aniq reja va dasturlar asosida izchil amalga oshirish hamda sohani kompleks rivojlantirish orqali ko'zlangan maqsadlarga erishish hududiy davlat hokimiyati organlarining mas'uliyati va javobgarligini yanada kuchaytiradi. Chunki har bir hududning turistik salohiyatini doimiy baholab borish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda joylarda turistik jihatdan jozibador muhitni shakllantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda turizm sohasida manfaatdor tashkilotlar zimmasidagi muhim vazifa hisoblanadi.



1-rasm. Hududlarda turizmini infratuzilmasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi²

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizningcha, turizm sohasi infratuzilmasida xizmat ko'rsatuvchi barcha korxona va tashkilotlar faoliyatini jonlantirish, pandemiya oqibatida yetkazilgan zararlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish hamda turizmning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi rolini yangi bosqichga olib chiqishda sohani ishlab chiqilgan strategiya asosida muvofiqlashtirish, barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish va belgilangan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv kelgusida mamlakatning turistik jozibadorligini oshirishga, turizm xizmatlari sohasining faol va yuqori sur'atlarda rivojlanishiga, pirovardida esa aholi turmush farovonligi, daromadlari va bandligini ta'minlash kabi muhim ijtimoiy masalalarning hal etilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, turizm infratuzilmasini rivojlantirish va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalarida O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi doirasida belgilangan chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



hamda ko'zlangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda yuqorida taklif etilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar dasturi amaliy ahamiyatga ega bo'lib, samarali vosita sifatida xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Bizningcha, taklif etilayotgan mexanizmning amaliyotga joriy etilishi turizm xizmatlari sohasida qator ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Ushbu yo'nalishdagi asosiy tavsiyalar quyidagilardan iborat (1-rasmga qarang):

Birinchidan, mamlakatda turizm sohasi infratuzilmasini rivojlantirish siyosatini amalga oshirish jarayonida sohani boshqarish, nazorat qilish, tartibga solish va qo'llab-quvvatlash borasida individual va hududiy xususiyatlarni inobatga oluvchi yondashuv shakllanadi. Bu, o'z navbatida, turizm sohasining iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshiradi hamda belgilangan vazifalarning izchil va to'liq ijro etilishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, respublika bo'yicha hududlar kesimida turizm infratuzilmasi bilan bog'liq transport, mehmonxona va ovqatlanish xizmatlari tarkibiy qismlari bo'yicha real va to'liq statistik ma'lumotlar shakllantiriladi. Bu holat sohaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini aniq baholash, muntazam monitoring olib borish hamda hududlarda turizmni rivojlantirishning qisqa va uzoq muddatli prognozlarini ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Uchinchidan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib, turizm infratuzilmasi subyektlari va obyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari belgilash vakolatlarining hududlar ixtiyoriga berilishi hududiy turistik jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Natijada hududlararo sog'lom raqobat muhiti shakllanib, turizm salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlari kengayadi.

To'rtinchidan, hududlarda turizm xizmatlari sohasini iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirishda turizm infratuzilmasiga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik mexanizmi shakllanadi. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, nazariya va amaliyot uyg'unligining ta'minlanishi sohada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni samarali hal etishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda turizm sohasi infratuzilmasini har tomonlama va jadal rivojlantirish, uning mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini shakllantirishdagi rolini kuchaytirish, ichki va tashqi turizm bozorini sifatli turizm xizmatlari bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish zarur. 2019–2025-yillarda turizmni jadal rivojlantirish Konsepsiyasi doirasida belgilangan vazifalarni chuqur tahlil qilgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, kelgusida mamlakat turizm istiqbollari ko'p jihatdan davlatning tarmoq iqtisodiyotidagi faol ishtiroki, shuningdek, turizm xizmatlari sohasini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va moliyaviy sohalaridagi samarali tashkilotchilik va rahnamolik faoliyatiga bevosita bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jukova M.A. *Menedjment v turisticheskoy biznese*. — Moskva: KNORUS, 2006. — 192 b.
2. Buylenko V.F. *Razvitiye sovremennogo turizma*. — Moskva: Feniks, 2008. — 416 b.
3. Zorin I.V. *Turizm kak osobyy vid deyatel'nosti*. — Moskva: KNORUS, 2010. — 367 b.
4. Kurilova V.I. *Industrialnyy turizm: osnovnyye problemy razvitiya* [Elektron resurs].
5. Ivanova V.M. *Turizm: osnovy, napravleniya, struktura*. — Moskva: ID "Feniks", 2008. — 265 b.
6. Boltaboyev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. *Turizm: nazariya va amaliyot*. Darslik. — Toshkent, 2018.
7. Kun.uz axborot portali. URL: <https://kun.uz/11780695> (murojaat qilingan sana: 28.12.2025 yil, soat 07:55).
8. Kun.uz axborot portali. URL: <https://kun.uz/11780695?q=%2F11780695> (murojaat qilingan sana: 28.12.2025 yil, soat 07:55).
9. Zamin.uz axborot portali. *Pandemiyadan keyingi turizm: O'zbekistonda nimalarga e'tibor qaratish kerak*. URL: <https://zamin.uz/jamiyat/85825-pandemiyadan-keingi-turizm-zbekiston-nimalarga-jetibor-aratishi-kerak.html> (murojaat qilingan sana: 28.12.2025 yil, soat 08:25).
10. Kun.uz axborot portali. *O'zbekistonda nega mehmonxonalar qimmat?* URL: <https://kun.uz/news/2025/03/25/ozbekistonda-nega-mehmonxonalar-qimmat> (murojaat qilingan sana: 28.12.2025 yil, soat 09:25).
11. Kun.uz axborot portali. URL: <https://kun.uz/11780695?q=%2F11780695> (murojaat qilingan sana: 28.12.2025 yil, soat 09:46).
12. World Tourism Organization (UNWTO). *Digital Transformation in Tourism*. URL: <https://www.unwto.org/digital-transformation>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100